

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2023 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2023 Vol. 1

**www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz**

MUNDARIJA

MATNSHUNOSLIK. MANBASHUNOSLIK

Aftondil Erkinov

Navoiyning Metropoliten muzeyi devoni
qo'lyozmasi va uning tarkibi masalasi (905/1499-
1500-yil, xattot – Sultonali Mashhadiy) 4

Kemal Yavuz Ataman

Babürşah ve Küreselleşen Hindistan 21

ADABIYOTSHUNOSLIK

Ilyos Ismoilov

Iskandar mavzusining ilk diniy-tarixiy manbalari 35

Ülkər Baxşiyeva

Nizami Gəncəvinin “İskəndərnamə” poemasının
bədn-estetik xüsusiyyətləri 53

Ozoda Tojiboyeva

“Tarje’bandi Xomisa” – Alisher Navoiyga
izdoshlik mahsuli 66

LINGVISTIKA

Samixon Ashirboyev

Alisher Navoiy nasriy asarlarida qo'shma gap
transformatsiyasidagi sodda gaplar sintaksisi 79

Farhad Rahimi

Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün
Değerlendirilmesi 92

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Vahit Turk (Turkiya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Nazef Shahrani (AQSh)
Boqijon To'xliyev
Muhammadjon Imomnazarov
Bilol Yujel (Turkiya)
Qosimjon Sodiqov
Zulxumor Xolmanova
Mustafa O'ner (Turkiya)
Nurboy Jabborov
G'aybulla Boboyorov
Kimura Satoru (Yaponiya)
Imran Ay (Turkiya)
Aftondil Erkinov
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
Rashid Zohidov
Otabek Jo'raboyev
Bulent Bayram (Turkiya)
Qo'ldosh Pardayev
Nodirbek Jo'raqo'ziyev
Oysara Madaliyeva
Hilola Nazirova

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva	
EXECUTIVE SECRETARY	
Ozoda Tojibaeva	
EDITORIAL BOARD	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Vahit Turk (Turkey)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Nazif Shahrani (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Mukhammadjan Imomnazarov	
Bilol Yujel (Turkey)	
Kasimjan Sadikov	
Zulkhumor Kholmanova	
Mustafa O'ner (Turkey)	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Kimura Satoru (Japan)	
Imran Ay (Turkey)	
Aftandil Erkinov	
Nadir Mamadli (Azerbaijan)	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bulent Bayram (Turkey)	
Kuldosh Pardaev	
Nodirbek Jurakuziev	
Oysara Madalieva	
Hilola Nazirova	

CONTENTS	
TEXTOLOGY. SOURCE STUDIES	
Aftondil Erkinov	
Navoi's manuscript of the Metropolitan Museum of Art and the question of its composition (905/1499-1500 years, calligrapher - Sultanali Mashhadi)	4
Kemal Yavuz Ataman	
Baburshah and Globalized India	21
LITERATURE	
Ilyos Ismoilov	
The first religious-historical sources of Iskander theme	35
Ulkər Bakhshieva	
Artistic and aesthetic features of Nizami Ganjavi's poem "Iskandername"	53
Ozoda Tojiboeva	
"Tarjebandi Khomisa" as a product of following Alisher Navoi	66
LINGUISTICS	
Samikhon Ashirboev	
Syntax of simple sentences in compound sentence transformation in Alisher Navoi's prose works	79
Farhad Rahimi	
The Evaluation of Nezrali's Chagatai Turkish Dictionary	92

MATNSHUNOSLIK. MANBASHUNOSLIK
TEXTOLGY. SOURCE STUDIES

Navoiyning Metropoliten muzeyi devoni
qo'lyozmasi va uning tarkibi masalasi
(905/1499-1500-yil, xattot –
Sultonali Mashhadiy)

Aftondil Erkinov¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning Nyu York shahrida joylashgan Metropoliten muzeyida saqlanayotgan devoni qo'lyozmasi tarkibi haqida so'z boradi. Mazkur devon mashhur xattot Sultonali Mashhadiy tomonidan 905/1499-1500-yili Hirotida ko'chirib tugallangan. Devon Navoiy va Mashhadiy o'rtasidagi so'nggi ijodiy hamkorlik natijasi sifatida ahamiyatlidir. Maqolada mazkur devonning tarkibiga oid matnshunoslik mulohazalari bildiriladi.

Kalit so'zlar: *Metropoliten muzeyi, Hirot, Sultonali Mashhadiy, terma devon, "Navodir un-nihoya".*

Kirish

Alisher Navoiy devonini 870/1465-1466-yili Temuriylar saroyining mashhur xattoti Sultonali Mashhadiy ko'chirib tugalladi. Bu Navoiy she'rlarining hayotligi davridagi bizga ma'lum eng dastlabki qo'lyozma nusxasi edi. Navoiyning eng so'nggi qo'lyozma devonini ham Sultonali Mashhadiy 905/1499-1500-yili Hirot shahrida ko'chirib tugallaydi. Mazkur qo'lyozma hozirgi kunda Nyu York shahrida joylashgan Metropoliten san'at muzeyida saqlanayotganidan xabarimiz bor edi. Ammo uning o'zini ko'rib,

¹*Erkinov Aftondil Sodirxonovich* – filologiya fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi, Metropoliten muzeyi tadqiqotchisi, Nyu York, AQSh.

E-pochta: erkinov@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9284-4443

Iqtibos uchun: Erkinov, A.S. 2023. "Navoiyning Metropoliten muzeyi devoni qo'lyozmasi va uning tarkibi masalasi (905/1499-1500-yil, xattot – Sultonali Mashhadiy)". *Oltin bitiglar* 1: 4–20.

tarkibi bilan batafsil tanishishga endilikda muvaffaq bo'lindi. Navoiy ham mana shu davrda Hirot shahrida bo'lganligi hamda 1501-yili 3-yanvarda dunyodan o'tganligi hisobga olinsa, bu shoirning o'zi ko'rgan, devonning tartiblanishi jarayonida Sultonali Mashhadiy bilan amalga oshirgan eng so'nggi adabiy hamkorligi natijasi bo'lishi ehtimoli katta. Mazkur jihat qo'lyozmaning ilmiy ahamiyatini oshiradi.

Nihoyat, ko'pdan buyon orzu qilingan maqsadga yetish imkoni paydo bo'ldi: Navoiy umri so'ngida ko'chirilgan ayni devon qo'lyozma bilan tanishish sharafiga Amerika Qo'shma shtatlari Metropoliten muzeyi ilmiy stipendiyasini qo'lga kiritish orqali mussar bo'ldik. Mazkur maqolamiz mana shu qo'lyozma xususiyatlari haqida dastlabki ma'lumotlarni keltirishga bag'ishlanadi (bundan keyin maqolamizda mazkur devonni shartli ravishda Metropoliten devoni deb ataymiz).

Qo'lyozmaning istoriografiyasi

Bu qo'lyozma haqida matnshunos olim Hamid Sulaymonov (1911–1979) 1961-yili tugallagan dissertatsiyasida birinchilardan bo'lib ma'lumot bergan [Сулаймонов 1955-1961 (1), 222-224] edi¹. Olim qo'lyozma tarkibini janrlar miqdori va boshlanishi hamda oxirgi misralar asosida ko'rsatgan. Lekin qo'lyozmadagi "Zihi zuhuri jamoling..." deb boshlanuvchi g'azal o'rniga mazkur devon "Ashraquat min aksu..." g'azali bilan boshlanadi, degan (?!). Ayni vaqtda H.Sulaymonov tilga olingan dissertatsiyasi 2-tomi so'ngida Navoiy she'rlarining "Yig'ma jadvali"ni tuzgan. Unda o'zi tadqiq etgan Navoiy "Xazoyin ul-maoniy"ning 20 ta qo'lyozmasidagi she'rlar keltirilib, 20 ta qo'lyozmaning har birida o'sha she'rlar keltirilgan sahifalar raqamlari ko'rsatilgan. Shunda biz ko'rib o'tayotgan devon 18-qo'lyozma sifatida keltirilgan [Сулаймонов 1955-1961, 1-376].

Navoiyga mansub ayni devon qo'lyozmasi ilmiy jihatdan qisqa tavsiflangan va 1914-yili Amerikada ingliz tilida chop etilgan katalog nomini H. Sulaymonov dissertatsiyasida keltirmagan [Cochran, 1914]. Aftidan, olim bu katalogdan foydalanmagan yoki undan bexabar bo'lgan.

Shularga qaramay, 1914-yilgi katalog va H.Sulaymonov ma'lumotlari ko'rib o'tayotganimiz qo'lyozmaning ilk, umumiy tavsifi sifatida hozircha yagona ma'lumot bo'lib turibdi². Ular

¹ 1-ilovaga qarang.

² Dilbarxon Ahmedova ko'rsatilgan katalog tavsifidagi ma'lumotlarni qisman o'z

keltirgan ma'lumotlar katalog tavsifi janri doirasida o'z vazifasini bajargan. Biz uchun esa qo'lyozma ichidagi she'rlar va ularning matni haqidagi batafsilroq ma'lumotlar kerak. Yuqoridagi ikki tavsifda aytilishicha, Navoiy devoni qo'lyozmasi 240x150 mm hajmga ega bo'lib, uning tarkibida 863ta she'r mavjud. Bular: 818ta g'azal (3^b-234^b varaqlar), 3ta mustazod (234^b-236^a varaqlar), 1ta muxammas (236^a-237^a), 4ta tarji'band (237^a-250^b), 31ta ruboiy (251^a-254^a), 3ta qit'a (250^a-251^a), 3ta muammo (254^a). Qo'lyozma oxirida kolofon keltirilgan va unda devonning ko'chirilish sanasi, kotibi va ko'chirilish joyi haqidagi ma'lumotlar berilgan (254^a):

Bu [asar]ni faqir Sulton Ali al-Mashhadiy [Alloh] uni gunohlarini kechirsin, 905-yil hijriyda saltanat markazi bo'lmish Hirotida ko'chirdi.

كتبه الفقير سلطان على
المشهدى غفر ذنوبه فى سنة خمس
وتسعمائة الهجرية بدار السلطنة هراة

Hamid Sulaymonov mazkur devonni "Terma devon" deb atagan. Bu devondagi nechta she'r "Xazoyin ul-maoniy"da keltirilganini ko'rsatgan:

"G'aroyib us-sig'ar" – 149

"Navodir ush-shabob" – 316

"Badoye' ul-vasat" – 206

"Favoyid ul-kibar" – 189

Ko'rib o'tilayotgan devondagi 3 ta g'azal esa "Xazoyin ul-maoniy"da uchramasligini ta'kidlagan¹.

H.Sulaymonovning dissertatsiyasida keltirilgan Metropolitan devoni tavsifiga asoslanadigan bo'lsak, garchi ko'rganligini aniq aytmasa-da, olim qo'lyozma bilan bevosita tanish bo'lgan. Shunga qaramay, bu qo'lyozma bilan bog'liq turli muammoli fikrlar vujudga keladi. Ularga oid fikrlarini o'z vaqtida H.Sulaymonov bildirib o'tganida, bizga hozirda osonroq bo'lardi. Ba'zi misollarga murojaat qilamiz. Olim Metropolitan devonini "Terma devon" degan nom ostida keltiradi.

Mazkur devon haqida biz 2020-yili maqola e'lon qilib, uni tarkibiga ko'ra Navoiy "Navodir un-nihoya" devonining shoir hayotligida tayyorlangan eng oxirgi nusxasi bo'lishi mumkin degan taxminni ilgari surgan edik [Erkinov, Madaliev, 2020]. Bunda biz Metropolitan devoni qo'lyozmasidagi matnni ko'rmasdan

maqolasida keltirib o'tgan [Ahmedova 2014].

²Bunda H.Sulaymonov xulosasi o'zi nashr qilgan "Xazoyin ul-maoniy" matnidan kelib chiqqan. Yana H.Sulaymonov Metropolitan devonida mavjud degan bu 3 g'azal ayni devon qo'lyozmasida keltirilmagan (?!).

turib, Hamid Sulaymonov dissertatsiyasi 2-jildi so‘ngidagi Navoiy she‘rlarining “Yig‘ma jadvali”dan o‘rin ilgan 20ta qo‘lyozmaning 18-si sifatida keltirilgan ma‘lumotlarga suyanamiz. Navoiy she‘rlarining ayni jadvalida “Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi she‘rlarning 20ta qo‘lyozmasining har birida qaysi sahifada uchrashi ko‘rsatilgan. Natijada, Metropoliten devoni tarkibini H.Sulaymonov taklif qilgan umumiy jadvaldan olingan 30 betdan iborat yangi jadval yuzaga keldi. Unda 841ta she‘rning dastlabki baytlari keltirildi [Erkinov, Madaliyeva 2020]¹.

Ko‘rib o‘tilayotgan devonning boshlanishi quyidagicha:

*Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,
Yuzung quyoshig‘a zarroti kavn o‘lub shaydo (3^b).*

Qo‘lyozmadagi oxirgi bayt:

*Ham qoshi birla orazi xush erur,
Ham ko‘zi birla qaddi dilkash erur (254^a).*

Ma‘lumki, Navoiyning “Navodir un-nihoya” va “Navodir ush-shabob” devonlarida ham ayni bayt bilan boshlanadigan g‘azal birinchi bo‘lib kelgan. Shu bois bu ikki devondan biri emasmikin, degan mulohaza ham vujudga keladi. Tarkibiga ko‘ra u “Navodir ush-shabob”ga o‘xshamasdi. Shu bois “Navodir un-nihoya” bo‘lishi mumkin, degan ehtimol ilgari surildi [Erkinov, Madaliyeva 2020; 2021]. Albatta, bunday mulohazani ilgari surish shartli edi. Sababi – devon qo‘lyozmasining asl nusxasini ko‘rmasdan fikr bildirishga to‘g‘ri kelgandi.

Nega aynan bu devon qo‘lyozmasi, uning tarkibi “Xazoyin ul-maoniy”dan keyin tayyorlanmoqda? Bu kabi savollarga javob izlash jarayonida mazkur maqola vujudga keldi.

Maqolaning boshlanishidanoq, Alisher Navoiy va Sultonali Mashhadiy o‘rtasidagi ijodiy, keng ma‘nodagi adabiy hamkorlikning so‘nggi namunasi Navoiyning Metropoliten devoni ekanligiga diqqatni qaratdik. Buni quyidagi jadval ham ko‘rsatib turibdi [Erkinov, Madaliyeva 2019]:

¹ Shu jumladan 799 g‘azal va 42 ta boshqa janrdagi she‘rlar jadvalga kiritildi. H.Sulaymonov dissertatsiyasida Metropoliten devonidagi she‘rlarni 818 g‘azal va 42 ta boshqa janrdagi she‘rlar deb ko‘rsatgan (?).

Sultonali Mashhadiy ko'chirgan Navoiy devonlari

№	Navoiy devoni nomi	Ko'chirilish sanasi	Ko'chirilish joyi	Saqlanish joyi va raqami
1.	Ilk devon	870/1465-66	Hirotda (?)	Rossiya milliy kutubxonasi (Sankt-Peterburg), №Dorn 564;
2.	Badoye' ul-bidoya	889/1484-1485	Hirotda	Sulaymoniy kutubxonasi (Istanbul), №3981
3.	Devoni g'azaliyot	898/1492-93	?	O'RSHI-1, №790 ¹
4.	Navodir un-nihoya (?)	?	Hirotda	O'RSHI-1, №1995
5.	Devon	905/1499-1500	Hirotda	Metropolitan muzeyi (Nyu York), № 13.228.20

Ko'rinib turganidek, jadvalda 5-o'rinda keltirilgan Metropolitan devoni qo'lyozmasini o'sha paytda Hirotda bo'lgan Alisher Navoiy va Sultonali Mashhadiy o'zaro maslahatlashib tugallashgan, deb hisoblasak yoki taxmin qilsak, uning ilmiy ahamiyati juda oshib ketadi. Sababi – bu devon Navoiyning o'z she'rlari ustida ishlashining eng oxirgi bosqichini ko'rsata oladi. Ya'ni, Navoiy lirik merosi laboratoriyasini (ijodxonasini) o'rganishda yakunlovchi bosqich sifatida xizmat qiladi. Navoiy va Mashhadiy ijodiy hamkorligi mazkur devon bilan o'z nihoyasiga yetadi.

Bevosita Metropolitan devoni qo'lyozmasi haqida mulohazalarga o'tamiz. Qo'lyozmadagi Navoiy devoni matni bilan bevosita tanishishdan so'ng biz uch yil avval keltirganimiz xulosani baralla aytishga hali ertaligi, oldinda hal qilinmagan bir qancha masalalar mavjudligi oydinlashdi. Ular quyidagilar:

1. Navoiy "Terma devon"lari masalasi.
2. "Navodir un-nihoya"ning asliyat matni muammosi.

1) Terma devonlar masalasi. Hamid Sulaymonov Metropolitan devonini "Terma devon" deb atagan. Xo'sh, shunday ekan, unga Navoiyning aynan qaysi she'rlari kiritilgan? Shoirning "Xazoyin ul-maoniy" lirik kulliyotidan keyin tuzilgan va undagi she'rlardan saylab olingan she'riy to'plamlar shartli ravishda "Terma devon" deb atalgan. Hozirgacha Navoiy "Terma devon"i nomi ostida 15-19 asrlar mobaynida ko'chirilgan yuzdan ortiq qo'lyozma mavjud [Хакимов 1983]. Ularning tarkibi va xos xususiyatlari, qaysi o'lchovlar asosida tuzilganligi ilmiy jihatdan deyarli o'rganilmagan. Mana shunday

¹O'RSHI – Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi sharqshunoslik instituti.

sharoitda Navoiy “Terma devon”i va uning boshqa nusxalardan farqi, xos xususiyati haqida fikr yuritish ancha murakkablik kasb etadi.

2) “Navodir un-nihoya”ning asliyat matni muammosi. Metropoliten devoni tarkibidagi she‘rlarni Navoiy “Navodir un-nihoya”si bilan solishtirish uchun mazkur devon asliyat matni muammosi chalkashlikka olib kelmoqda. Hozirga qadar bizga “Navodir un-nihoya”ning to‘rt qo‘lyozmasi ma‘lum. Ulardan uchtasi haqida M.Rashidova [Рашидова 2019] va Tojikistondagi bir nusxa to‘g‘risida B. Maqsudov ma‘lumot bergan [Мақсудов 2016]. “Navodir un-nihoya” devonining matni va manbashunoslik tahliliga doir ham bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan [Валихўжаев 1979; 1991; Имомназаров 2017; Юсупова 2017]. Lekin ularda biz ko‘rib o‘tayotgan devonga aloqador fikr bildirilmagan. Ehtimol, ayni jihat mazkur devonni “Terma devon”lardan biri sifatida hisoblab kelinganligi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak.

Ma‘lumki, Alisher Navoiy o‘zi tarafidan tartib berilgan 3ta devoniga debocha ham yozgani haqida “Xazoyin ul-maoniy”ning debocha qismida aytib o‘tadi. Ammo bugungi kunga qadar shoirning ikkinchi devoni – “Navodir un-nihoya”ning debochasi bilan ko‘chirilgan nusxasi topilmagan. Navoiy Metropoliten devonida ham debocha mavjud emas. Bu esa fanda “Navodir un-nihoya”ning debochasi bilan bog‘liq muammolar ham hali yechilmaganini anglatadi.

H.Sulaymonov O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida 1995-raqami ostida saqlanayotgan, Sultonali Mashhadiy Hirotda ko‘chirgan sanasiz qo‘lyozmani “Navodir un-nihoya” devoni deb hisoblagan [Навоий 1995; Suleymanov 1955-1961, (1), 70-71, 168-171]. Metropoliten devonini esa “Terma devon” deb atagan. Aftidan, H. Sulaymonov Metropoliten devonini tarkibi bilan tanish bo‘lsa-da, masalaning murakkabligini bilgani holda, ayni devon va “Navodir un-nihoya” matni masalalariga maxsus to‘xtab o‘tirmagan. Bunga yana bir asos-olimning asosiy maqsadi “Xazoyin ul-maoniy” devonlari tarkibi, matnini tiklash, kitobxonlarga Navoiy she‘riyatining asosiy, yaxlit matnini tayyorlab tezroq yetkazishdan iborat bo‘lgan. “Ilk devon”, “Badoye’ ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya” kabi devonlar matni nashri masalasiga ko‘p diqqat qilmagan. Masalan, “Ilk devon”ning faksimile nashri bilan cheklangan. H. Sulaymonovning Navoiy devonlari, xususan, “Xazoyin ul-maoniy” matni ustidagi tadqiqoti va ayni asar matnining dastlabki nashridan chorak asrdan ko‘proq vaqtdan keyin

“Badoye’ ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya”ning matnlari nashrlari Qo’lyozmalar instituti (1978–1998) tomonidan amalga oshirildi.

Hamid Sulaymonov “Navodir un-nihoya” deb atagan qo’lyozmani Metropoliten devoni tarkibi bilan dastlabki solishtirish ba’zi xulosalarga olib keldi. O’sha “Navodir un-nihoya”da 628ta, Metropoliten devonida esa 800ta g’azal bor. Ko’rinishidan, 628ta g’azalga yana 172tasi qo’shilib, Metropoliten devoni vujudga kelgandek. Bu ikki qo’lyozmadagi Navoiy devoni tarkibi bir-biri bilan solishtirilganda, H.Sulaymonov “Navodir un-nihoya”sidagi 630ta g’azalning barchasi emas, chamasi 450tasi Metropoliten devoniga o’tgan bo’lib chiqdi. Demak, Metropoliten devonini shakllantirishda, shartli olsak, taxminan 450dan ortiq g’azal H. Sulaymonov “Navodir...”idan olingan. Qolgan taxminan 350ga yaqini bu devondan tashqaridan, masalan, “Xazoyin ul-maoniy”dan olingan H.Sulaymonov “Navodir...”i biz o’ylaganchalik Metropoliten devoni uchun asosiy manba bo’lmagan ko’rinadi. Chunki ko’p she’rlar (salkam yarmi – 45%) H. Sulaymonov tayyorlagan “Navodir...”ga tashqaridan olib qo’shilib, Metropoliten devonini vujudga keltirgan. Balki shuning uchun H.Sulaymonov Metropoliten devonini “Terma devon” deb atagan.

Metropoliten devoni tarkibini aniqlash jarayonida “Navodir un-nihoya” devoni matni masalasi ancha murakkab va oxirgi nuqtasiga yetmagandek ko’rindi. Yuqorida keltirganimiz nomi shartli ravishda olingan H. Sulaymonov “Navodir un-nihoya”sidan tashqari, bu devon qo’lyozmasidan keyinchalik topilgan yana bir “Navodir un-nihoya” mavjud bo’lib, u 1487-yili Abduljamil kotib tomonidan ko’chirilgan. U ham hozirda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida 11675-raqami ostida saqlanadi [Navoiy, 11675].

Sultonali Mashhadiy Hirotda ko’chirgan, yuqorida ko’rib o’tganimiz “Navodir un-nihoya” qo’lyozmasi haqida birinchi bo’lib H. Sulaymonov ma’lumot beradi. Bu fikr aytilgan davr 1961-yilga to’g’ri keladi. Abduljamil kotib ko’chirgan “Navodir un-nihoya” qo’lyozmasidan H.Sulaymonov xabardor bo’lmagan ko’rinadi, uning dissertatsiyasida mazkur qo’lyozma tilga olinmagan. Abduljamil kotib qo’lyozmasi Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to’plami” 20 tomlik nashrining 2-tomida chop etilgan “Navodir un-nihoya” devoni matni uchun asos qilib olingan¹. Bu nashr 1987-yili amalga

¹Nashrda H.Sulaymonov “Navodir un-nihoya”sidagi she’rlar bilan Abduljamil nusxasi solishtirib to’ldirilganligi aytilsa-da (Navoiy. MAT, 2-tom, 2), aslida Abduljamil qo’lyozmasi tarkibi bir necha to’ldirishlar bilangina chop etilgan.

oshirilgan. Bu nashr H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti olimlari tomonidan amalga oshirilgan.

Demak, H.Sulaymonov Sharqshunoslik institutida 1995-inventar raqam ostida saqlanayotgan qo‘lyozmani “Navodir un-nihoya” devonining asl matni deb hisoblagan. Abduljamil kotib 1487-yili ko‘chirgan “Navodir un-nihoya”ning ushbu qo‘lyozmasi Navoiy mukammal asarlari 20 jildligining 2-jildida bu devonning asosiy matni sifatida 1995-raqamli qo‘lyozmadagi she‘rlar bilan to‘ldirib nashr qilingan. Vaholanki, “Navodir un-nihoya” devoni qo‘lyozmalari va matni bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan navoiyshunos olimlar Dilnavoz Yusupova va Oysara Madaliyevaning og‘zaki fikricha, bu ikki qo‘lyozma tarkibi bir-biriga yaqin emas. Navoiyning o‘zi tuzgan dastlabki devoni “Badoe’ ul-bidoya”dagi g‘azallarning bir qismi, bundan tashqari boshqa turli janrdagi she‘rlarning muayyan qismi deyarli o‘zgarishsiz H.Sulaymonov “Navodir un-nihoya”sida ham, asosiy diqqat markazimizda bo‘lgan Metropoliten devoni tarkibida ham keltirilgan. Bunday takrorlar g‘alati tuyuladi.

Ko‘rib o‘tayotganimiz H.Sulaymonov va Abduljamil kotib “Navodir un-nihoya”lari qo‘lyozmalaridagi g‘azallar qismining boshlanishi va oxiri bir xil. Faqat ayni bir xillikdan kelib chiqib, ular “Navodir un-nihoya”ning turli qo‘lyozmalari deb tushunilgan va birlashtirilib, 20 tomlikning 2-jildida nashr qilingan. H.Sulaymonov “Navodir un-nihoya”sidagi g‘azaldan boshqa janrdagi she‘rlar 20 tomlikka kiritilmagan. Buning sababi nashr kirishida ham ko‘rsatilmagan.

Savollar paydo bo‘ladi:

1. “Navodir un-nihoya”ning ko‘rib chiqayotganimiz ikki qo‘lyozmasida ham tugallanish bir xil – bu qo‘lyozma “devoni jadid” deb atalgan. Ammo “devoni jadid” deb nomlanishi, ya‘ni “yangi devon” degan so‘zlar aynan “Navodir un-nihoya”ni ifodalaydi deb kim kafolat bera oladi? Balki bu nom ostida Alisher Navoiy she‘rlaridan iborat bo‘lgan “Navodir un-nihoya” emas, “Terma devon” tushunilayotgandir?! Yoki aksinchadir?! Hozircha bu fikrlarning aniq javobi mavjud emas.

2. “Navodir un-nihoya” deb atalayotgan qo‘lyozmalar bilan bog‘liq noaniqliklar mavjud bir sharoitda “Navodir un-nihoya”ning yig‘ma yoki ilmiy-tanqidiy matnini yaratish masalasiga kirishish yanada ko‘proq chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 20 jildlikning 2-jildida keltirilgan

matn Navoiyning hayotligi davrida ko'chirilganligi bois Navoiyning "Navodir un-nihoya" devoni yoki Navoiy she'rlaridan tashkil topgan "Terma devon" bo'lishi ham mumkin, degan fikrga olib kelmoqda. Biz Navoiy asarlari 20 tomligining 2-jildidagi nashr "Navodir un-nihoya" devonining asl matni bo'lishini va unga suyanib, ilmiy xulosalar chiqarishni juda-juda istaymiz. Ammo, dastlab, ko'rib o'tganimiz mavjud muammoli fikrlarni hal etish lozim.

Bu maqoladagi maqsadimiz – Navoiyning AQShda saqlanayotgan "Terma devon"i mohiyatan "Navodir un-nihoya"mi yoki u emasligini aniqlash edi. Biroq solishtirishga asos bo'luvchi aniq "Navodir un-nihoya" matni mavjud emasligidan kelib chiqib, "Navodir un-nihoya" matni bilan bog'liq yuqoridagi chalkashliklarni ko'rsatishga urindik. Shu munosabat bilan "Navodir un-nihoya" devoni matni aniq qaysi qo'lyozma? – degan savol hamda Metropoliten devoni qo'lyozmasi "Terma devon"ga kiradimi yo boshqachami, degan mulohazalar ham hozircha o'z yechimini topmay turibdi. Balki ko'rib o'tganimiz uch qo'lyozmalarning barchasi "Navodir un-nihoya" devonining variantlaridir? Balki terma devonlar (!) matnlaridagi turlilik alohida tadqiqotlar va Navoiy devonlarining shoir hayotligi davridagi yangi qo'lyozmalarining topilishiga katta ehtiyoj borligini ko'rsatib turibdi. Yangi tadqiqotlar haqiqatni aniqlashga yordam berar, deb ishonch bildiramiz.

Muhimi shuki, mohiyatiga ko'ra qanday nomlanishidan qat'iy nazar, Alisher Navoiyning maqolamiz diqqat markazida bo'lgan, mashhur xattot Sultonali Mashhadiy tomonidan 905/1499-1500-yili Hirotda ko'chirib tugallangan qo'lyozmasi shoir ijodxonasini o'rganishda xos o'ringa ega. U Navoiy va Mashhadiy adabiy va kitobat-qo'lyozma san'ati bo'yicha ijodiy hamkorligining so'nggi mevasidir.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. *Терма девон*. Котиби: Султонали Машҳадий. Метрополитен санъат музейи. ММА, № 13.228.20.
- Алишер Навоий. *Наводир ун-ниҳоя*. Котиби: Абдулжамил котиб. ЎЗРШИ асосий фонди. № 11675. 149 varaқ.
- Алишер Навоий. *Наводир ун-ниҳоя*. Котиби: Султонали Машҳадий. ЎЗРШИ асосий фонди. №1995. 207 varaқ.
- Алишер Навоий. 1987. *Наводир ун-ниҳоя*. МАТ. Йигирма томлик, иккинчи том. Тошкент: Фан.
- Аҳмедова, Д. 2018. "Алишер Навоий ижодининг Америка Қўшма Штатларида ўрганилиши". *Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари*, 224-234. Тошкент.

- Валихўжаев, Б. 1979. "Алишер Навоий мўътабар дастхат девони ҳақида". *Ўзбек тили ва адабиёти* 3: 41-43.
- Имомназаров, М. 2021. *XXI аср: Алишер Навоий лирик мероси матншунослиги муаммолари*. Тошкент: Donishmand ziyosi.
- Мадалиева, О. 2019. "Навоий девонларининг Машҳадий кўчирган қўлёзмалари". *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 79-86.
- Мақсудов, Б. 2016. "Наводир ун-ниҳоя"нинг янги топилган қўлёзма нусхаси". *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 49-52.
- Навоий дастхати* (Наводир ун-ниҳоя). 1991. Нашрга тайёрловчи С.Ғаниева. Тошкент: Фан.
- Рашидова, М. 2019. "Алишер Навоий "Наводирун ниҳоя" девонининг уч қўлёзма нусхаси ва уларнинг қиёсий таҳлили". *Мозийдан садо* 1: 20-21.
- Сулейманов Х. 1955-1961. Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. В трех томах. Диссертация доктора филологических наук. Том I-II. Ташкент-Москва.
- Эркинов А., Мадалиева О. 2020. "Терма девон" ёки Навоий "Наводир ун-ниҳоя"сининг сўнгги редакцияси? (Машҳадий қўлёзмаси асосида, 905/1499-1500 йил)". *"Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman*, 19-21. Toshkent: Mashhur-Press.
- Эркинов А., Мадалиева О. 2021. "Терма девон" ёки Навоий "Наводир ун-ниҳоя"сининг сўнгги редакцияси?" *"Ўзбекистонда ислом маданияти, тарихи ва санъатини ўрганишнинг янги истиқболлари"* мавзуидаги халқаро конференция мақолалари тўплами, 637-672. edited by Mahmud Erol Kılıç and Bakhrom Abdukhaliyev; prepared for publication by Ashirbek Muminov... [et al.]. – Istanbul: Research Centre for Islamic History, Art and Culture.
- Юсупова, Д. 2017. "Наводир ун-ниҳоя" фақат ғазаллардан иборат девонми?" *"Алишер Навоий ва XXI аср"* мавзуидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари, 54-60. Тошкент.
- Ҳакимов, М. 1983. *Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи*. Тошкент: Фан.
- Cochran, A.S. 1914. *Catalogue of the Collection of Persian Manuscripts, Including also some Turkish and Arabic, Presented to the Metropolitan Museum of Art, New York*. New-York: Columbia Univ.press.

Navoi's manuscript of the Metropolitan Museum of Art and the question of its composition

(905/1499-1500 years, calligrapher - Sultanali Mashhadi)

Aftondil Erkinov¹

Abstract

This article is about the manuscript of the collection of poetry of Alisher Navai, kept in the Metropolitan Museum of Art in New York. This collection was rewritten by the famous calligrapher Sultan Ali Mashkhadi in 905/1499-1500 in the city of Hirat. It is valuable because it is the product of the latest creative collaboration between Navai and Mashkhadi. Textological reasoning about the composition of this collection is given.

Key words: *Metropolitan Museum of art, Hirat, divan, Sultan Ali Mashhadi, Navadir al-nihaya.*

References

- Alisher Navoiy. *Terma devon*. Kotibi: Sultonali Mashhadiy. Metropoliten san'at muzeyi. MMA, № 13.228.20.
- Alisher Navoiy. *Navodir un-nihoya*. Kotibi: Abduljamil kotib. O'zRShI asosiy fondi. № 11675. 149 varaq.
- Alisher Navoiy. *Navodir un-nihoya*. Kotibi: Sultonali Mashhadiy. O'zRShI asosiy fondi. №1995. 207 varaq.
- Alisher Navoiy. 1987. *Navodir un-nihoya*. MAT. Yigirma tomlik, ikkinchi tom. Toshkent: Fan.
- Ahmedova, D. 2018. "Alisher Navoiy ijodining Amerika Qo'shma Shtatlarida o'rganilishi". *O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari*, 224-234. Toshkent.
- Valixo'jaev, B. 1979. "Alisher Navoiy mo'tabar dastxat devoni haqida". *O'zbek tili va adabiyoti* 3: 41-43.
- Imomnazarov, M. 2021. XXI asr: *Alisher Navoiy lirik merosi matnshunosligi*

¹Aftondil S. Erkinov – doctor of philological sciences, Center for research of cultural assets of Uzbekistan abroad under the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan, Metropolitan Museum, New York, USA.

E-pochta: erkinov@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9284-4443

For citation: Erkinov, A. S. 2023. "Navoi's manuscript of the Metropolitan Museum of Art and the question of its composition (905/1499-1500 years, calligrapher - Sultanali Mashhadi)". *Golden scripts* 1: 4-20.

- muammolari*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Madaliev, O. 2019. “Navoiy devonlarining Mashhadiy ko‘chirgan qo‘lyozmalari”. *O‘zbek tili va adabiyoti* 1: 79-86.
- Maqsudov, B. 2016. “Navodir un-nihoya”ning yangi topilgan qo‘lyozma nusxasi”. *O‘zbek tili va adabiyoti* 6: 49-52.
- Navoiy dastxati* (Navodir un-nihoya). 1991. Nashrga tayyorlovchi S.G‘anieva. Toshkent: Fan.
- Rashidova, M. 2019. “Alisher Navoiy “Navodirun nihoya” devonining uch qo‘lyozma nusxasi va ularning qiyosiy tahlili”. *Moziydan sado* 1: 20-21.
- Suleymanov X. 1955-1961. *Tekstologicheskoe issledovanie liriki Alishera Navoi. V trex tomax*. Dissertasiya doktora filologicheskix nauk. Tom I-II. Tashkent-Moskva.
- Erkinov A., Madaliev O. 2020. “Terma devon” yoki Navoiy “Navodir un-nihoya”sining so‘nggi redaksiyasi? (Mashhadiy qo‘lyozmasi asosida, 905/1499-1500 yil)”. *“Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman*, 19-21. Toshkent: Mashhur-Press.
- Erkinov A., Madaliev O. 2021. “Terma devon” yoki Navoiy “Navodir un-nihoya”sining so‘nggi redaksiyasi?” *“O‘zbekistonda islom madaniyati, tarixi va san‘atini o‘rganishning yangi istiqbollari”* mavzuidagi xalqaro konferensiya maqolalari to‘plami, 637-672. Edited by Mahmud Erol Kılıç and Bakhrom Abdukhalimov; prepared for publication by Ashirbek Muminov... [et al.]. – Istanbul: Research Centre for Islamic History, Art and Culture.
- Yusupova, D. 2017. “Navodir un-nihoya” faqat g‘azallardan iborat devonmi?” *“Alisher Navoiy va XXI asr”* mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari, 54-60. Toshkent.
- Hakimov, M. 1983. *Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi*. Toshkent: Fan.
- Cochran, A.S. 1914. *Catalogue of the Collection of Persian Manuscripts, Including also some Turkish and Arabic, Presented to the Metropolitan Museum of Art, New York*. New-York: Columbia Univ.press.

**Hamid Sulaymonov dissertatsiyasidagi Metropoliten
qo'lyozmasi haqidagi ma'lumotlar**

(Сулейманов Х. Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. Диссертация доктора филологических наук. В трех томах. Том I-II. Ташкент-Москва, 1955-1961. С.222-224)¹

(O'zbek tiliga tarjimai)

Terma devon. Nyu-York, Metropoliten muzeyi, inventar raqami № 21², formati 24 x 15 sm, hajmi – 254 varaq, matn ikki ustunga yozilgan, bir varaqda 15 tadan qator berilgan, ko'chirilish sanasi – 905/1499-1500-yil.

Sulton Ali Mashhadiy tomonidan muallif vafotidan bir yil oldin, shoir hayotligi davrida ko'chirilgan noyob nusxalardan biri.

“Xazoyin ul-maoniy” she'rlaridan tuzilgan, ancha katta hajmdagi tipik terma devon. U yetti lirik janrda yozilgan 863 she'rdan tarkib topgan. Qo'lyozmada g'azallar guruhi “G'aroyib as-sigar”dagi birinchi g'azal bilan boshlanadi:

Ashraquat...

va “Favoyid ul-kibar”dagi so'nggi 650-g'azal bilan tugaydi:

Zihi, yo'lungda bir aftoda odam xokiy.

Devon oliy darajadagi qora siyoh bilan nastaliq xatida ko'chirilgan. Har bir g'azal tepasida arab tilida yozilgan sarlavha mavjud bo'lib, ular g'azal mavzuyini bildiradi. Qo'lyozmaning boshidan oxirigacha berilgan bu sarlavhalarning barchasi rang-barang fonda oqish rangda yozilgan va nafis gulli naqshlar bilan bezatilgan. She'rlar qizil va sabzirang bilan birga oltin rangda hoshiyalangan. Qo'lyozma qog'oziga yaxshi ishlov berilgan, u suyak rangidek ko'rinishda. Qo'lyozmaning yozilgan qismi juda mayda oltin chang bilan qoplangan.

Qo'lyozma tarkibi to'liq emas, 108^b, 148^b, 183^b, 226^b va 250^b varaqlardan keyin keluvchilari yo'qolgan. Qo'lyozma restavratsiya qilingan. Zamonaviy sahifalanishga ega. Mutaxassislar fikricha,

¹H.Sulaymonovning dissertatsiyasi rus tilida yozilgan. Undagi Metropoliten devoni haqida tavsif tarkibini ko'rsatish uchun, uni o'zbek tiliga tarjima qildik.

²Qo'lyozmaning Metropoliten muzeyidagi inventar raqami – 13.228.20.

qo'lyozma taxminan XVI asrda yangidan muqovalangan.

Qo'lyozmaning dastlabki ikki sahifasi rang-barang murakkab naqshlar bilan bezatilgan. Bundan tashqari qo'lyozma ichida 16 ta nazokat bilan ishlangan miniatyuralar (2^b, 3^a, 3^b, 17^b, 27^b, 74^a, 51^a, 85^a, 108^a, 125^a, 141^b, 153^b, 171^a, 209^b, 237^b, 245^a) mavjud. Sahifani deyarli to'liq egallagan mazkur miniatyuralar Hirot miniatyura san'atining eng go'zal namunalaridan biri bo'lib, ismi ko'rsatilmagan noma'lum rassom tomonidan chizilgan. Umuman olganda, devon qo'lyozmasi XV asr badiiy qo'lyozma san'atining durdonasi sanaladi.

Qo'lyozma bizga yaxshi holatda etib kelgan, yirtilgan, chaplashib ketgan varaqlari yo'q. Qo'lyozmaning 6-25-varaqlari qisman suv dog'lariga ega.

Qo'lyozma tarkibi:

I. G'azallar – 818 (3^b-234^b varaqlar). G'azallarning alifbo tartibida joylashishi:

ا – 53, ب – 34, پ – 1, ت – 29, ث – 5, ج – 5, چ – 4, ح – 4, خ – 7, د – 24, ذ – 2, ر – 79, ز – 26, ژ – 1, س – 30, ش – 39, ص – 4, ض – 5, ط – 7, ظ – 3, ع – 9, غ – 11, ف – 12, ق – 19, ك – 72, ل – 56, م – 62, ن – 116, و – 12, ه – 22, ی – 34.

Birinchi g'azalning boshlanishi: mazkur qo'lyozmadagi kabi № 55 (GS)

Oxirgi g'azalning oxiri: mazkur qo'lyozmadagi kabi № 55 (FC)

II. Mustazod – 3 (234^b-236^a varaqlar).

Birinchi mustazod boshlanishi: mazkur qo'lyozmadagi kabi № 55 (G'S)

Ikkinchi mustazod boshlanishi: mazkur qo'lyozmadagi kabi № 55 (NSh)

Uchinchi mustazod boshlanishi: mazkur qo'lyozmadagi kabi № 55 (BV)

III. Muxammas – 1 (236^a-237^a varaqlar), mazkur qo'lyozmadagi kabi № 55 (G'S)

IV. Tarji'band – 4 (237^a-250^b varaqlar).

Birinchi tarji'band boshlanishi: mazkur qo'lyozmadagi kabi № 55 (G'S)

Ikkinchi tarji'band boshlanishi: mazkur qo'lyozmadagi kabi № 55 (NSh)

Uchinchi tarji'band boshlanishi: mazkur qo'lyozmadagi kabi № 55 (BV)

To'rtinchi tarji'band boshlanishi: mazkur qo'lyozmadagi kabi

№ 55 (FC)

V. Qit'a – 3 (250^b-251^a varaqlar), boshlanishi: mazkur qo'lyozmadagi kabi № 55 (NSh)

VI. Ruboiy – 31 (251^a-254^a varaqlar), boshi: mazkur qo'lyozmadagi kabi № 55 (G'S), ruboiy № 22.

VII. Muammo – 3 (254a varaq), boshlanishi: mazkur qo'lyozmadagi kabi № 55, (NSh) 3-son.

Qo'lyozma oxiri:

هم قاشى بىرلا عارضى خوش ايرور
هم كوزى بىرلا قدى دلکش ايرور

Undan keyin kolofon keltirilgan:

كتبه الفقير سلطان على المشهدى غفر ذنوبه فى سنة خمس وتسعمائة الهجرية
بدار السلطنة هراة

Bu [asar]ni faqir Sulton Ali al-Mashhadiy [Alloh] uni gunohlarini kechirsin, 905-yil hijriyda saltanat markazi bo'lmish Hirotida ko'chirdi.

Ushbu qo'lyozma g'azallari "Xazoyin ul-maoniy"ning to'rt devoniga quyidagicha taqsimlangan: "G'aroyib us-sig'ar" – 149 she'r, "Navodir ush-shabob"da – 316, "Badoye' ul-vasat"da – 206, "Favoyid ul-kibar" – 189 va qo'lyozmada "Xazoyin ul-maoniy"da uchramaydigan 3 ta g'azal (49, 765, 767-raqamlar) mavjud.

Qo'lyozma she'rlarning to'liq ro'yxatga olish umumiy jadvalining 18-ustunida keltirilgan¹.

¹ H.Sulaymonov dissertatsiyasi 2-tomidagi "Yig'ma jadval" nazarda tutilyapti.



1-rasm. Alisher Navoiy. Devon. 905/1499-1500-yili, Sultonali Mashhadiy tomonidan Hirotda ko'chirilgan. Metropoliten muzeyi (Nyu York), Inventar raqami MMA. 13.228.20. 3^b varaq.
Devon unvoni (ya'ni boshlanishi).



2-rasm. Alisher Navoiy. Devon. 905/1499-1500-yili, Sultonali Mashhadiy tomonidan Hirotda ko'chirilgan. Metropolitan muzeyi (Nyu York), Inventar raqami MMA. 13.228.20. 37^a varaq. Devon sahifalaridan biri.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochtasiga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o’ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi

qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany:
Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:
Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek
matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti.
<http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni:
maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti."
Oltin bitiglar 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globalashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 03. 2023-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot
agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan
ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,
+99894 659 94 62